

## SUG‘DIYLAR - MADANIYATLAR CHORRAHASIDAGI XALQ

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti O‘zbekiston tarixi kafedrası II bosqich magistranti **Narzullayeva Nasiba Qudratovna**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola *Judith A. Lerner* va *Thomas Wide* tomonidan yozilgan “**Who Were the Sogdians, and Why Do They Matter?**” nomli ilmiy maqola asosida o‘zbek tiliga tarjima qilinib, tahliliy tarzda yozilgan. Maqolada Sug‘diylar sivilizatsiyasining Ipak yo‘llaridagi o‘rni, ularning savdo-sotiqdagi faoliyati, madaniy va diniy xilma-xilligi, san‘at va adabiyotdagi hissasi, shuningdek, ularning tarixiy xotiradan qanday qilib yo‘qolib ketgani va zamonaviy tadqiqotlar orqali qayta kashf etilgani yoritilgan. Shuningdek, maqolada Sug‘diylarning harakatchanlik, madaniyatlararo aloqalarga ochiqlik va kosmopolitizm tamoyillari asosida shakllangan madaniyati bugungi global tarixiy kontekstda qanday ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritiladi. Maqola Sug‘diylar merosini zamonaviy ilmiy yondashuvlar — harakatchanlik, gibridlik va transmadaniy aloqalar doirasida tahlil qiladi.<sup>1</sup>

**Kalit so‘zlar:** Sug‘diylar, savdo, diaspora, mobilitet, sinkretizm, estetik, ikonografiya, arxeologiya, yozuv, til, san‘at, madaniyat, tarix, din, kosmopolitizm, almashinuv, meros, ierarxiya, identitet, gibridlik.

Bugungi dunyomizga ta’sir ko‘rsatuvchilar — ya’ni boshqalarga nima kiyish, nima yeyish, nimani yoqtirish va nimani xarid qilish bo‘yicha yo‘l ko‘rsatuvchi insonlar shakl bermoqda. Bunday ta’sir ko‘rsatuvchilar siyosiy kuch yoki rasmiy hokimiyatga tayanmaydi. Aksincha, ular o‘zlarining ijtimoiy tarmoqlari, maxsus bilim yoki noyob mahsulotlarga kirish imkoniyati, shuningdek, madaniy “zamonaviylik” orqali odamlarning xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatadilar. O‘zaro bog‘langan dunyomizda bunday ta’sir doirasi qit‘alar va madaniyatlar bo‘ylab keng tarqalishi mumkin. Bunday ta’sir ko‘rsatuvchilar zamonaviy aloqa texnologiyalari tufayli paydo bo‘lgan yangi hodisa deb o‘ylash oson. Ammo aslida, bugungi ta’sir ko‘rsatuvchilar birinchi bo‘lib bunday tarmoqlar orqali keng ta’sir doirasiga ega bo‘lganlar emas. Taxminan 2000 yil avval ham shunday bir guruh ta’sir ko‘rsatuvchilar bo‘lgan — ular son jihatdan kam, siyosiy kuchga ega bo‘lmasalar-da, o‘z atrofidagi dunyoni o‘zgartirishga hissa qo‘shganlar. Biz ularni Sug‘diylar deb ataymiz. Ularning ta’sir maydoni: Ipak yo‘li, to‘g‘rirog‘i, “Ipak yo‘llari” deyish kerak, chunki bu yo‘llar aslida Osiyoning turli qismlarini bog‘lovchi yo‘llar tizimi edi.<sup>2</sup>

Sug‘diylar — eroniy xalqlardan bo‘lib, ularning vatani Sug‘diyona bo‘lgan. Bu hudud hozirgi O‘zbekiston va Tojikistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, qadimda bir nechta savdo yo‘llarining chorrahasida joylashgan edi. Sug‘diylar ilk bor miloddan avvalgi 5-asrda Axomoniylar Fors imperiyasining bir viloyati sifatida tilga olingan. Keyinchalik, Iskandar Zulqarnayn Osiyo bo‘ylab sharqqa yurish qilganida bu hududni bosib olgan. Milodiy 4-asrdan 8-asrgacha bo‘lgan davrda Sug‘diyona boylik va nufuz jihatidan eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Bu davrda Sug‘diyona

<sup>1</sup> <https://sogdians.si.edu/introduction/Who Were the Sogdians, and Why Do They Matter?>

<sup>2</sup> Sören Stark (Institute for the Study of the Ancient World, New York University) describes the Sogdians’ network of commercial relationships across Asia.

Osiyo qit'asining buyuk imperiyalari o'rtasida joylashgan, boy qishloq xo'jaligi yerlari va vohalardan iborat hududiy mozaikani tashkil etgan edi.

Ehtimol, boshqa hech bir xalq Sug'diylar kabi Ipak yo'llarining imkoniyatlaridan bu darajada foydalana olmagan. Ular Xitoy bilan Osiyoning boshqa hududlari o'rtasidagi savdodan katta foyda ko'rgan savdogar jamiyatini shakllantirdilar. Harakatchan, ko'p tilli va yuqori malakali bo'lgan Sug'diylar uzoq-uzoqlardagi hududlarni o'zaro bog'lash, mahsulotlar va g'oyalarni uzoq masofalarga yetkazish, shuningdek, global savdo va almashinuv jarayonlarini yengillashtirish qobiliyatiga ega edilar. O'z sayohatlari, savdo aloqalari va tarjimalari orqali sug'diylar san'at, moda, turmush tarzi, texnologiyalar va diniy g'oyalarning xilma-xilligini shakllantirishda muhim rol o'ynaganlar — bu esa ularning vatanidan uzoqdagi hududlarga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Ushbu raqamli ko'rgazma Sug'diylarning san'ati, madaniyati va ta'sirining turli jihatlarini, bugungi kungacha saqlanib qolgan moddiy madaniyat namunalari tayanib o'rganadi. Ko'rgazma milodiy 4-asrdan 8-asrgacha bo'lgan davrga — Sug'diylar uchun "oltin davr" bo'lgan vaqtga e'tibor qaratadi. Shu davrda Sug'diy muhojir jamoalari Xitoy, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo bo'ylab, shuningdek, Markaziy Osiyo dashtlari va Mo'g'ulistongacha tarqalgan edi. Bu davrda Sug'diyona ham gullab-yashnagan: savdo orqali boyluk orttirgan shaharlar va sug'oriladigan unumdor yerlar orqali yurt taraqqiy etgan. Aynan shu davrda yuqori darajadagi murakkab va o'ziga xos shahar madaniyati shakllangan bo'lib, bu madaniyat elita vakillarining hashamatli uylari va ulardagi rang-barang, murakkab devoriy rasmlar bilan ifodalangan. Bunday san'at asarlari 20-asrda va hozirgi kungacha O'zbekiston hamda Tojikistondagi arxeologik qazishmalar davomida topilgan.<sup>3</sup>

Sug'diylarning ta'siri bilan bog'liq eng hayratlanarli jihatlardan biri shundaki, u siyosiy yoki harbiy kuchga tayanmagan. Ular imperiyaga ega emas edilar, balki Sug'diyonadagi siyosiy tuzilmalari bir-biridan mustaqil bo'lgan kichik knyazliklar (knyazlik — kichik hukmdorlik) shaklida bo'lib, har birining o'z yetakchisi bo'lgan. Sug'diylar o'zlarining voha shaharlaridan chiqib, sayohatlari davomida savdogar jamoalarini tashkil etganlar va turli imperiyalar homiyligida yashaganlar. Sug'diyona aholisi, albatta, o'z qo'shinlariga ega bo'lgan, harbiy yurishlarda qatnashgan va dashtlardagi ko'chmanchilarning boy Sug'diyona boyluklariga ko'z olaytirgan doimiy tahdidiga qarshi shaharlarini mustahkamlab kelgan. Biroq ularning muvaffaqiyati harbiy kuch bilan emas, balki harakatchanlik, moslashuvchanlik va o'ziga xoslik bilan belgilangandi.

Ularning harakatchanligi uzoq hududlarni bog'lash, uzoq-uzoqlarda bozori bor mahsulotlar bilan savdo qilish imkonini bergan. Moslashuvchanlik esa ularga turli madaniyatlar va tillarga moslashish, yangi paydo bo'lgan imkoniyatlardan foyda olishga yordam bergan. Ularning madaniyatidagi o'ziga xoslik — ya'ni "boshqachalik" va betakrorlik — aynan o'sha xorijda "eksport" qilingan jihatlardan biri edi. Bu ayniqsa Tang sulolasi davridagi Xitoyda (milodiy 618–907-yillar) yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki bu davr Xitoy madaniyatida "g'ayrioddiy" va xorijiy narsalarga bo'lgan qiziqish bilan ajralib turardi. Aynan shu yerda Sug'diylar va ularning savdo mahsulotlari katta e'tibor va e'tirofqa sazovor bo'lgan.

Savdo nuqtayi nazaridan qaralganda, Sug'diylar, albatta, ipak bilan savdo qilganlar, biroq ular boshqa qimmatbaho tovarlar bilan ham faol shug'ullanganlar. Bular qatoriga Farg'ona vodiysidan olib kelingan otlar, Hindistondan keltirilgan qimmatbaho toshlar, Tibetdan olingan mushk, shimoldagi

<sup>3</sup> Sören Stark (Institute for the Study of the Ancient World, New York University) discusses what first drew him to the study of the Sogdians.

dashtlardan keltirilgan mo'yna mahsulotlari, shuningdek, xitoy she'riyatida tilga olingan mashhur "Samarqandning oltin shaftolilari" kiradi. Sug'diylar, shuningdek, mohir hunarmandlar bo'lib, hashamatli buyumlar, ayniqsa, metall buyumlarni yasash va ularni savdoga chiqarish bilan mashhur bo'lganlar. Ularning metallga ishlov berish san'ati va matotkilik mahsulotlari Osiyo dashtlari bo'ylab va Xitoygacha bo'lgan hududlarda keng tarqalgan va qadrlangan. Sug'diylar faqat tovarlar emas, balki moda va madaniy urf-odatlarini ham eksport qilganlar. Ularning kiyinish uslubi Tang sulolasi davridagi Xitoyda (618–907-yillar) nihoyatda mashhur bo'lgan. Tang saroyining ayollari kaftanlar, oldi ochiq uzun va tor yengli jaketlar, tor paxtali shimlar hamda etiklar kiyganlar. Aslida, bu kiyimlar Sug'diylar va boshqa Markaziy Osiyo erkaklariga xos bo'lgan bo'lib, Tang ayollari bu uslubni o'zlashtirish orqali gender chegaralarini kesib o'tganlar. Bu holat Sug'diy modasining nafaqat estetik, balki madaniy jihatdan ham qanday ta'sir kuchiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Ularning kiyim-kechaklari, ko'ngilochar an'analari va ziyofat madaniyati Tang davri Xitoyida "begona" va "ekzotik" deb qabul qilingan, bu esa ularni yanada jozibador qilgan. Xorijiy kiyimlarga bo'lgan qiziqish Tang davri Xitoyida saroy muhitidan tortib oddiy mahalliy yig'inlargacha bo'lgan ijtimoiy qatlamlarda xorijiy taomlar, musiqa, musiqa asboblari va raqsga bo'lgan keng ommaviy qiziqish bilan chambarchas bog'liq edi. Ayniqsa, jo'shqin "Sug'dcha aylanish" raqsi Xitoy jamiyatining barcha qatlamlarida mashhurlikka erishgan.<sup>4</sup> Bunday raqslar ko'pincha mahalliy mayxonalarda ijro etilgan va Xitoydagi ko'plab sharob do'konlari Sug'diylar tomonidan boshqarilganini hisobga olsak, bu holat "mast sug'diy" obrazining Xitoy va Yaponiya madaniyatida doimiy obrazga aylanishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Sug'diy tili esa Ipak yo'lining umumiy aloqa vositasi — ya'ni lingua franca — sifatida xizmat qilgan. Savdo ehtiyojlari va tarjima orqali daromad topish imkoniyati sababli ko'plab Sug'diylar bir nechta tilni bimalol bilganlar. Shu bois ular diplomatik vositachilar va diniy matnlar hamda g'oyalarni yetkazuvchi sifatida ideal mavqega ega edilar. Masalan, ilk buddaviy matn tarjimonlarining ba'zilar aynan sug'diy kelib chiqishiga ega bo'lgan. Sug'diyona va uning Xitoygacha cho'zilgan karvon yo'llari tarmog'i buddaviylikning sharqqa tomon tarqalishida muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Xitoylik mashhur buddaviy sayyoh Xuanzangning sayohatlari ham bu jarayon bilan bog'liq. Xristianlik va manixeylik kabi boshqa dinlar ham qisman Sug'diyona orqali va sug'diylar vositasida tarqalgan. Sug'diylarning xorijda turli dinlar bilan aloqada bo'lganini inobatga olsak, ularning o'zlari ham diniy e'tiqodlar borasida nihoyatda xilma-xil amaliyotga ega bo'lganliklari ajablanarli emas. Sug'diyonadagi vatanda ular asosan Mazdaychilik (Zardushtiylik) diniga e'tiqod qilganlar, biroq shu bilan birga hinduizm, buddizm, xristianlik, shivachilik, yahudiylik va manixeylik kabi boshqa dinlarga ham amal qilganlar. Xorijda, ayniqsa Xitoyda, ular o'zlarining asosiy dini bo'lgan Mazdaychilikni davom ettirganlar, biroq bu e'tiqod mahalliy madaniyatga moslashtirilgan shaklda bo'lgan. Saqlanib qolgan dalillar shuni ko'rsatadiki, Sug'diylar nafaqat diniy amaliyotda pluralistik (ya'ni bir nechta dinlarga ochiq) bo'lganlar, balki sinkretik xususiyatga ham ega edilar — ya'ni boshqa madaniyatlarning xudolarini o'z diniy ehtiyojlariga moslab qabul qilganlar. Boylik va turli madaniyatlar bilan aloqadorlikning uyg'unligi natijasida Sug'diylar o'ziga xos san'at madaniyatini yaratganlar. Bu san'at turli shakllarda namoyon bo'lgan bo'lib, O'zbekiston, Tojikiston, Shinjon

<sup>4</sup> Judith A. Lerner (Institute for the Study of the Ancient World, New York University) discusses relationships between the Sogdians and Chinese.

(Xitoy) va Xitoyning boshqa hududlarida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar davomida topilgan rang-barang devoriy rasmlar orqali yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qo'shimcha arxeologik topilmalar orasida nozik ipak matolar, kumush va oltindan ishlangan nafis metall buyumlar, murakkab o'yama yog'och va qoliqlangan sopol buyumlar mavjud. Bunday topilmalar bizga Sug'diylarning tasviriy madaniyati haqida tobora batafsilroq tasavvur hosil qilish imkonini bermoqda. Sug'diyona san'ati har xil shakllarda namoyon bo'lsa-da, uni birlashtiruvchi umumiy jihatlar mavjud. Ayniqsa e'tiborga molik xususiyatlardan biri — bu san'atning kuchli hikoyaviy (narrativ) yo'nalishga ega ekani, ya'ni ziyofatlar, ovchilik, ko'ngilochar mashg'ulotlar va hikoya aytish kabi ijtimoiy faoliyatlarga bo'lgan alohida e'tiboridir. Shuningdek, Sug'diy san'ati qo'shni madaniyatlarning mavzu va uslub elementlarini o'zlashtirishga ochiqligi bilan ham ajralib turadi. Sug'diylar Ipak yo'llarining faoliyatida markaziy rol o'ynagan bo'lishiga qaramay, bu xalq ming yil davomida tarix sahnasidan deyarli butunlay yo'qolgan va unutilgan edi. Milodiy 7–8-asrlarda musulmon lashkarlarining sharqqa qarab yurishi natijasida Sug'diyonadagi mahalliy hukmdor sulolalar qulab tushdi va bu hudud ketma-ket musulmon imperiyalari tarkibiga qo'shilishi bilan islom diniga asta-sekinlik bilan o'tdi.<sup>5</sup>

Xitoyda esa, 750-yillarda Sug'diy-turk general An Lushanning Tang imperatoriga qarshi qo'zg'oloni (vafoti 757-yil) Sug'diy jamoalarining ijtimoiy mavqeining pasayishiga olib keldi. Ular tobora ko'proq shubha va hatto dushmanlik bilan qarshilana boshlandi. Ko'plab Sug'diylar Xitoyda faol ravishda assimilyatsiyalashdi va bir necha avlod davomida ularning o'ziga xos madaniy va etnik identiteti yo'qolib ketdi. Sug'diy xalqining yo'qolishi bilan birga ularning tili, tarixiy hujjatlari va me'morchilik yodgorliklari ham izsiz ketdi. Biroq bu yo'qolish faqat 19-asr oxiri va 20-asr boshlarigacha davom etdi. Aynan shu davrda olimlar ilk bor Sug'diylarga oid arxeologik yodgorliklarni — Sug'diy yozuvida bitilgan qadimiy maktublardan tortib, ulkan devoriy rasmlargacha — kashf eta boshladilar. Tarixiy manbalarda tarqoq holda saqlanib qolgan ushbu parchalar olimlarga Sug'diylar tarixini va ularning moddiy madaniyatini qayta tiklash imkonini berdi. Biroq, ularning ta'siri yaqindagina jiddiy e'tirof etila boshladi. Buning birinchi sababi shundaki, Sug'diylar an'anaviy yozma tarixda “buyuk shaxslar” — ya'ni podshohlar, sarkardalar yoki diniy rahbarlar sifatida ko'zga tashlanmagan. Ular savdogarlar, hunarmandlar, san'atkorlar va dehqonlar bo'lgan, bu esa ularning nozik, ammo chuqur ta'sirini ko'pincha e'tibordan chetda qoldirgan. Ikkinchi sabab shundaki, Sug'diylar hech qachon yagona, markazlashgan siyosiy tuzilma bo'lmagan va aniq chegaralangan geografik hududda yashamaganlar. Shu bois, zamonaviy milliy davlatlar ularni o'z ajdodlari sifatida da'vo qila olmagan. Natijada, Sug'diylar “uysiz” xalq sifatida tarixiy tadqiqotlarda ko'pincha e'tiborsiz qoldirilgan, ayniqsa milliy tarixlarni yaratishga qiziqqan tadqiqotchilar tomonidan ular geografik, siyosiy va madaniy chegaralarni kesib o'tgan harakatchan xalq bo'lganliklari sababli, ularni o'rganish ko'p vaqt e'tibordan chetda qolgan.<sup>6</sup>

So'nggi o'ttiz yil ichida bu holat tubdan o'zgardi. Endilikda olimlar global va “o'zaro bog'langan” tarixga, shuningdek, kundalik hayotdagi oddiy insonlar — ya'ni “elita bo'lmaganlar” — ning ijtimoiy va madaniy hayotiga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Ular “harakatchanlik” va “gibridlik” kabi

<sup>5</sup> Nicholas Sims-Williams (School of Oriental and African Studies) discusses the Sogdian texts that have survived to this day.

<sup>6</sup> Judith A. Lerner (Institute for the Study of the Ancient World, New York University) describes the “Sogdian aesthetic.”

tahliliy tushunchalarni tarixni anglash vositasi sifatida faol qo'llamoqdalar. Bu ilmiy qiziqishlar zamonaviy davrimiz mahsuli bo'lib, bugungi globallashtirish va yuqori darajada tarmoqlashgan dunyoda shaxsiy va milliy identitetlarning o'zgaruvchan va ixtiyoriy tabiati tobora ko'proq anglanmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, Sug'diylar ideal tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Ular ko'p tili, yuqori darajada harakatchan madaniyatga ega bo'lib, muvaffaqiyatlarini dunyolar o'rtasida erkin harakatlana olish, boshqa madaniyatlarga ochiqlik va savdo hamda dehqonchilik kabi tinch faoliyatlarga asoslaganlar. Bunday talqinda Sug'diylar amaliy kosmopolitizmning muvaffaqiyatli namunasi sifatida ko'rinadi. Biroq, bu tasvirni haddan tashqari ideallashtirishdan ehtiyot bo'lish lozim. Sug'diylar harbiy yurishlardan butunlay yiroq bo'lmaganlar. Ular o'z ijtimoiy tuzilmalarida qat'iy ierarxiyani saqlaganlar, bu esa ularni tenglikka asoslangan jamiyat deb bo'lmasligini ko'rsatadi. Ular Ipak yo'lidagi savdoning "qorong'i tomonlari"da — qullik va, ehtimolki, fohishalikda ham ishtirok etganlar. Shunday bo'lsa-da, Sug'diy hayoti va madaniyatining ko'plab jihatlari, ayniqsa bugungi global tarixiy kontekstda, ijobiy va jozibador bo'lib qolmoqda.

Ushbu raqamli ko'rgazma dunyoning turli mamlakatlaridan bo'lgan ko'p tarmoqli ilmiy jamoaning bir necha yillik mehnati mahsulidir. Sug'diylar va ularning tasviriy madaniyati kabi dinamik va o'zgaruvchan mavzularni o'rganish ko'p tomonlama hamkorlikni talab qildi. Bu borada muhim rol o'ynagan muassasalar qatoriga quyidagilar kiradi<sup>7</sup>: Smitson instituti qoshidagi Freer san'at galereyasi va Artur M. Sakler galereyasi, Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitaj muzeyi, Bard Graduate Center, Nyu-York universitetining XE: Eksperimental gumanitar va ijtimoiy tadqiqotlar dasturi hamda Qadimgi dunyo tadqiqotlari instituti. Ushbu jamoa Sug'diy madaniyatining san'at, musiqa, ziyofatlar, din va dafn marosimlari kabi turli jihatlari, bugungi kungacha saqlanib qolgan moddiy madaniyat asosida namoyish etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sören Stark (Institute for the Study of the Ancient World, New York University) describes the Sogdians' network of commercial relationships across Asia.
2. Sören Stark (Institute for the Study of the Ancient World, New York University) discusses what first drew him to the study of the Sogdians.
3. Judith A. Lerner (Institute for the Study of the Ancient World, New York University) discusses relationships between the Sogdians and Chinese.
4. **After Annette L. Juliano and Judith A. Lerner. *Monks and Merchants: Silk Road Treasures from Northwest China, Gansu and Ningxia, 4th-7th Century* (New York: Harry N. Abrams and Asia Society Museum, 2001), p. 255, no. 82.**
5. Nicholas Sims-Williams (School of Oriental and African Studies) discusses the Sogdian texts that have survived to this day.
6. Judith A. Lerner (Institute for the Study of the Ancient World, New York University) describes the "Sogdian aesthetic."

<sup>7</sup> The Sogdians: Influencers on the Silk Roads is organized by the Freer Gallery of Art and Arthur M. Sackler Gallery, Smithsonian Institution.

7. Letter written by a Sogdian woman to her mother, lamenting that her husband had deserted her. One of the oldest substantial texts in Sogdian, it was discovered by Sir M. Aurel Stein in 1907 at an abandoned watchtower in western China.
8. Aurel Stein's view of Mogao Cave 16, in Dunhuang 敦煌, Gansu Province 甘肃省, China, with a number of manuscripts from Cave 17 bundled on the floor.
9. The Sogdians: Influencers on the Silk Roads is organized by the Freer Gallery of Art and Arthur M. Sackler Gallery, Smithsonian Institution.
10. **Lerner, J. A., & Wide, T.** (2021). *Who Were the Sogdians, and Why Do They Matter?* Washington, DC: Smithsonian Institution, Freer Gallery of Art and Arthur M. Sackler Gallery. [Online exhibition essay].

